XALQ DEPUTATLARI QO'SHRABOT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 21-yanvar VII-5-1-7-97-K/25 Qo'shrabot tumani

Xalq deputatlari Qo'shrabot tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-023-7-97-K/24-sonli qaroriga hamda ilovalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'grisida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi 2024-yil 24-dekabrdagi O'RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Samarqand viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01/10-38/3527-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Qo'shrabot tuman Kengashining ettinchi chaqiriq, beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Qo'shrabot tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-023-7-97-K/24-sonli qarorining ilovasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qarori ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni hamda xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2024 yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-son qaroriga muvofiq, Qo'shrabot tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **91 529 222,0** ming.so'm va xarajatlari esa **116 902 396,0** ming.so'mga ma'lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **25 373 174,0** ming.so'm miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek Qo'shrabot tumani mahalliy budjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **917 000,0** ming.so'm etib belgilanganligi hamda tuman mahalliy budjetiga umum davlat soliqlar va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me'yorlari tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

4. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko'rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy

budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 482 616,0** ming.so‘m miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

6. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan erlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar er uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlar 3-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan erlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Q.Xoliqulov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, tuman soliq inspeksiyasi (A.Abdumonnotov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralarini ko‘rsin.

8. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

9. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Qo‘shrabot tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (S.Bubakov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Q.Xoliqulov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi  ISMOILOV ABDURAUB TOSHBEKOVICH

Xalq deputatlari Qo’shrabot tumani
Kengashining
2025-yil 21-yanvardagi
VII-5-1-7-97-K/25 -son qaroriga
1-ilova

T/R	Daromad turlari Jami	Jami *(so‘mda)*
JAMI		**91 529 222**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	3 904 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	56 406 000
3	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	6 616 000
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	549 000
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	6 300 422
6	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	2 094 000
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	11 894 000
8	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	555 000
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 187 800
10	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	23 000

Qo‘shrabot tuman mahalliy budjeti daromadlarining
2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

Xalq deputatlari Qo’shrabot tumani
Kengashining
2025-yil 21-yanvardagi
VII-5-1-7-97-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Qo‘shrabot tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

T/r	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor (*so‘mda*)
Xarajatlar miqdori, jami		**116 902 396**
1	Maktabgacha va Maktab ta'limi bo‘limi	38 185 307
	shundan:	
	"Mening maktabim"	5 296 456
2	Madaniyat bolimi	3 751 204
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	4 905 258
4	Sport bo‘limi	3 982 685
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	2 095 184
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	3 648 983
7	Irrigasiya bo‘limi	200 000
8	*Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari*	2 678 060
9	Hokimiyat	39 508 224
	shundan:	
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	55 125
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	27 204 605
	Mahalla budjeti jamg‘armasi mablag‘lari	1 269 000
	Zahira jamg‘armasi	1 482 616
10	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi)	771 657
	shundan:	

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	179 848
	Axborot-kutubxona markazlari	591 809
11	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	17 175 834

Xalq deputatlari Qo’shrabot tumani
Kengashining
2025-yil 21-yanvardagi
VII-5-1-7-97-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlar

T/p	**Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi**	**Koeffisient (0,7 dan 3,0 gacha)**	**Er solig‘i stavkasi 2025 yil uchun *(so‘mda)***
1	Axchabsoy MFY	0,84	25 206 720,0
2	Bazarjay MFY	0,97	29 107 760,0
3	Boypurishli MFY	0,84	25 206 720,0
4	Boyto‘p MFY	0,97	29 107 760,0
5	Bulok MFY	0,84	25 206 720,0
6	Bulokboshi MFY	1,24	37 209 920,0
7	Dustlik MFY	0,97	29 107 760,0
8	Jonbulok MFY	0,84	25 206 720,0
9	Jush-ota MFY	0,97	29 107 760,0
10	Zarkent MFY	1,24	37 209 920,0
11	Zarmitan MFY	1,24	37 209 920,0
12	Karatosh MFY	0,97	29 107 760,0
13	Katta Okmachit MFY	0,97	29 107 760,0
14	Kiykim MFY	0,97	29 107 760,0
15	Kovunchi MFY	0,97	29 107 760,0
16	Kuvkalla MFY	0,84	25 206 720,0
17	Kuralos MFY	1,24	37 209 920,0
18	Kurgon MFY	0,97	29 107 760,0
19	Kushrabot MFY	0,97	29 107 760,0
20	Kushtamgali MFY	0,97	29 107 760,0
21	Mayintepa MFY	0,97	29 107 760,0
22	Minishkor MFY	0,84	25 206 720,0
23	Mustakillik MFY	1,45	43 511 600,0

24	Navkat MFY	0,97	29 107 760,0
25	Namuna MFY	1,45	43 511 600,0
26	Ozod MFY	0,84	25 206 720,0
27	Pangat MFY	0,84	25 206 720,0
28	Pichot MFY	1,24	37 209 920,0
29	Sarigul MFY	0,97	29 107 760,0
30	Soxibkor MFY	0,97	29 107 760,0
31	Tegirmonovul MFY	0,97	29 107 760,0
32	Tinchlik MFY	0,97	29 107 760,0
33	Toz MFY	0,97	29 107 760,0
34	Urganji MFY	0,97	29 107 760,0
35	Urtasay MFY	0,97	29 107 760,0
36	Xonnazar MFY	0,97	29 107 760,0
37	Chimmos MFY	0,97	29 107 760,0
38	Chinok MFY	0,97	29 107 760,0
39	Chorlok MFY	0,8327	24 987 661,6
40	Shavana MFY	0,97	29 107 760,0
41	Shova MFY	0,84	25 206 720,0
42	Yukori Jush MFY	0,97	29 107 760,0
43	Yukori Saroy MFY	0,97	29 107 760,0
44	Yangikishlak MFY	0,84	25 206 720,0
45	Yangiobod MFY	0,97	29 107 760,0

Xalq deputatlari Qo’shrabot tumani
Kengashining
2025-yil 21-yanvardagi
VII-5-1-7-97-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlar

T/p	Hudud nomi	Koeffisient (0,7 dan 3,0 gacha)	Er solig‘i stavkasi 2025 yil uchun *(so‘mda)*
1	Axchabsoy MFY	0,83	219,2
2	Bazarjay MFY	0,96	253,6
3	Boypurishli MFY	0,83	219,2
4	Boyto‘p MFY	0,96	253,6
5	Bulok MFY	0,83	219,2
6	Bulokboshi MFY	1,03	272,1
7	Dustlik MFY	0,96	253,6
8	Jonbulok MFY	0,83	219,2
9	Jush-ota MFY	0,96	253,6
10	Zarkent MFY	1,03	272,1
11	Zarmitan MFY	1,03	272,1
12	Karatosh MFY	0,96	253,6
13	Katta Okmachit MFY	0,96	253,6
14	Kiykim MFY	0,96	253,6
15	Kovunchi MFY	0,96	253,6
16	Kuvkalla MFY	0,83	219,2
17	Kuralos MFY	1,03	272,1
18	Kurgon MFY	0,96	253,6
19	Kushrabot MFY	0,96	253,6
20	Kushtamgali MFY	0,96	253,6

21	Mayintepa MFY	0,96	253,6
22	Minishkor MFY	0,83	219,2
23	Mustakillik MFY	1,16	306,4
24	Navkat MFY	0,96	253,6
25	Namuna MFY	1,39	367,1
26	Ozod MFY	0,83	219,2
27	Pangat MFY	0,83	219,2
28	Pichot MFY	1,03	272,1
29	Sarigul MFY	0,96	253,6
30	Soxibkor MFY	0,96	253,6
31	Tegirmonovul MFY	0,96	253,6
32	Tinchlik MFY	0,96	253,6
33	Toz MFY	0,96	253,6
34	Urganji MFY	0,96	253,6
35	Urtasay MFY	0,96	253,6
36	Xonnazar MFY	0,96	253,6
37	Chimmos MFY	0,96	253,6
38	Chinok MFY	0,83	219,2
39	Chorlok MFY	0,96	253,6
40	Shavana MFY	0,96	253,6
41	Shova MFY	0,83	219,2
42	Yukori Jush MFY	0,96	253,6
43	Yukori Saroy MFY	0,96	253,6
44	Yangikishlak MFY	0,83	219,2
45	Yangiobod MFY	0,96	253,6